

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
BERUNIY TUMANI
HOKIMINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BERUNIY RAYONI
HAKIMINING
SHESHIMI**

2021 - yil 13 - noyabr

117-13-182-Q/21

Beruniy tuman hokimligi

Beruniy tumanida “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Yangi shahar” tamoyili asosida ommaviy obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazilishini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 2-noyabr kungi o‘tkazilgan videoselektor majlisida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash, shuningdek, xalqning, ayniqsa yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitga bo‘lgan diqqat e‘tiborini kuchaytirish, ona tabiatni kelajak avlodlar uchun asrab avaylash, ekologik holatni yaxshilash, atrof-muhitga salbiy ta‘sirining oldini olish, “Yashil makon” umummilliy loyiha doirasida “Yangi shahar” tamoyili asosida ommaviy obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish choralarini amalga oshirish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 4-noyabr kungi 01 -08/17-11/633/1-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 4-noyabr kungi 01 -08/17-11/633/1-sonli yig‘ilish bayoni ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlar birgalikda:

Tumanimiz bo‘ylab “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida “Dolzarb 40 kun”lik aksiyasini ommaviy turda tashkil etsinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida joriy yilning 2 noyabr kuni o‘tkazilgan video-selektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ko‘chat ekish bo‘yicha “Dolzarb 40 kun”likda ko‘chatlar ekilishini ta‘minlash bo‘yicha tuman Ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2021 yil kuz va 2022 yil bahor oylarida manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi tuman shtabi 2-ilovaga muvofiq;

2021 yil kuz va 2022 yil bahor mavsumlarida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlarini tashkilotlar kesimida ekish rejasi 3-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Beruniy Davlat o‘rmon xo‘jaligi (R.Qo‘shimbetov) e‘lon qilingan

“Dolzarb 40 kun”lik aksiyasini o‘tkazish davomida hududlarga taqsimlangan ko‘chatlar rejasi bo‘yicha yetkazib berilishini ta‘minlasin.

5. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha tuman inspeksiyasi (J.Babashev) va Beruniy Davlat o‘rmon xo‘jaligi (R.Qo‘shimbetov)ga ekilgan ko‘chat nihollarini kundalikli nazorat qilib borish, kunlik monitoring o‘tkazish hamda ma‘lumotlarni har kuni soat 18:00 gacha Respublika ko‘chat ekish Shtabi hamda tuman hokimligiga kiritib borish topshirilsin.

6. 2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida ko‘kalamzorlashtirish, dekorativ, mevali daraxt ko‘chatlarini ekish ishlarini hududlarda tashkil qilish bo‘yicha seminarlar o‘tkazishga tuman hokimi o‘rinbosarlari shaxsan javobgar ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

7. “Ekologiya” partiyasi tuman bo‘limi (A.Tangirbergenov) xo‘jalik rahbarlari bilan birgalikda “Bir million daraxt” va “Yashil makon” aksiyalarini ko‘taringki kayfiyatda o‘tkazilishini ta‘minlash;

ko‘kalamzorlashtirish, dekorativ va mevali daraxtlarni ekish;
hududlarda “Yashil maydon”larni yaratish;
aksiya va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini hududlarda ekologik marafon shaklida o‘tkazilishini ta‘minlasin.

8. Tuman yo‘lardan foydalanish bo‘limi (A.Xodjayev) tumandagi yo‘l bo‘ylarida 2021 yil kuz va 2022 yil bahor mavsumlarida ko‘kalamzorlashtirish, dekorativ, mevali daraxt ko‘chatlarini ekish ishlarini tashkillashtirish topshirilsin.

9. Shu yilning 15 noyabr kuni tuman hududi bo‘ylab “Toza shahar” aksiyasini yuqori darajada tashkillashtirilsin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (F.Primov, I.Yusupov, S.Urunbayev, D.Abdullayev, U.Usmanov, M.Qurbanbayeva) tuman hokimligining tashkiliy kadrlar guruhi (A.Qurbaniyazov)ga:

- o‘tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilib borish bo‘yicha hudud Ishchi guruhlar tarkibini tuzish;
- obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini joylarda to‘liq va sifatli o‘tkazilishini ta‘minlash bo‘yicha hudud Shtablarini tashkillashtirish;
- konsepsiya asosida ishlarni yuqori darajada o‘tkazilishini ta‘minlash;
- obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga zarur bo‘lgan mablag‘lar smetasini ishlab chiqish va tegishli tartibda ajratilishini ta‘minlash choralarini ko‘rish;
- har bir kompleksda kundalikli amalga oshirilayotgan ishlarning natijasi bo‘yicha tuman

hokimiga ma'lumot taqdim etib borish topshirilsin.

11. Tuman moliya bo'limi (A.Mambetsaburov) "Dolzarb 40 kun", "Yashil makon", "Toza shaxar" aksiyasi davomida zarur bo'lgan mablag'lar bo'yicha ishlab chiqilgan smetaga muvofiq tuman hokimligiga taklif kiritsin.

12. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Abdirov) aksiya davomida jamiyatda tartibni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilasin.

13. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Urazova), "Xalq minbari" gazetasi (L.Xo'janiyazova)ga "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida "Dolzarb 40 kun"lik aksiyasini ko'tarinki kayfiyatda o'tkazish bo'yicha videoroliklar tayyorlash hamda amalga oshirilayotgan ijobiy natijalarni doimiy tartibda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

14. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari (F.Primov, I.Yusupov, S.Urunbayev, D.Abdullayev, U.Usmanov, M.Qurbanbayeva) zimmalariga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi



A.Saparbayev

Беруний туман ҳокимининг
2021 йил 13 ноябрдаги
117-13-182-Q/21-сон қарорига
1-илова

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida joriy yilning 2 noyabr kuni o‘tkazilgan video-selektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Beruniy tumanida ko‘chat ekish bo‘yicha “Dolzarb 40 kun”likda ko‘chatlar ekilishini ta‘minlash bo‘yicha tuzilgan

ISHCHI GURUHI TARKIBI

№	Ismi sharifi	Lavozimi	Telefon raqami
1.	Urunbayev Sardor	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, <i>Ishchi guruh rahbari</i>	94 450 21 21
2.	Babashev Jamol	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>	99 705 12 84
3.	Qo‘shimbetov Rasul	Beruniy Davlat o‘rmon xo‘jaligi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>	93 848 01 00
4.	Yakupov Rashid	Tuman hokimligi mutaxassisi	99 571 55 04
5.	Sabirov Amin	Beruniy tumani qurilish bo‘limi boshlig‘i	97 355 63 77
6.	Shukurullayev Ravshan	Beruniy tumani qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari	97 500 45 60
7.	Allabergenov Temur	Kadastr agentligining Beruniy tumani bo‘limi boshlig‘i	91 370 07 68
8.	Nuriyev Muzaffar	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Beruniy tumani bo‘limi inspektori	97 348 79 77

Izoh: *Ishchi guruhi a‘zolari tomonidan noyabr-dekabr oylarida daraxt ko‘chatlarini belgilangan rejalar bo‘yicha shahar va tuman hududlarida amalga oshirilayotgan ishlarni nazoratga olib, tahlil qiladi hamda ma‘lumotlarni tuman hokimligiga har kuni taqdim etib boradi.*

Беруний туман ҳокимининг
2021 йил 13 ноябрдаги
117-13-182-Q/21-сон қарорига
2-илова

Beruniy tumanida 2021 yil kuz va 2022 yil bahor oylarida manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi tuman Shtabi

TARKIBI

№	Ismi sharifi	Lavozimi	Telefon raqami
1.	Matyakupov Baxodir	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha tuman inspeksiyasi davlat inspektori, <i>Ishchi guruh rahbari</i>	97 354 33 55
2.	Abduraimov Rustam	Beruniy tumani hokimligining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>	90 111 47 09
3.	Qo‘shanov Qahramon	Beruniy tumani hokimligining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi	97 474 44 88
4.	Matyakubov Xamid	Beruniy tuman hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha bosh mutaxassisi	97 787 60 77
5.	Qarribayev Haydar	Beruniy tumani iqtisodiyot taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi bosh mutaxassisi	97 474 44 77
6.	Davletov Vahob	Beruniy tumani hokimligi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi	97 789 99 55
7.	Xodjanov Jo‘rabek	“KKR Ipak klaster” MChJ rahbari	94 598 77 72
8.	Sultanov Bobomurod	Beruniy Davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi	99 065 94 31
9.	Urazova Aynura	Beruniy tumani hokimligi axborot xizmati rahbari	90 652 15 40
10.	Tangirbergenov Adham	Ekologik partiya Beruniy tumani bo‘limi boshlig‘i	97 655 07 00
11.	Fazilbekov Ilhom	Beruniy tumani Statistika bo‘limi bosh mutaxassisi	97 358 18 30

Izoh: Tuman monitoring shtabiga biriktirilgan mas‘ullar kunlik ma‘lumotlarni korxonalar va tashkilotlardan yig‘ish, tahlil qilish va umumlashtirilgan holda shtab rahbariga taqdim qilib borish va ma‘lumotlar Respublikada shtabi tomonidan tashkil etilgan “Yashil maydon” telegram kanaliga kiritilishi lozim.

Беруний туман ҳокимининг
2021 йил 13 ноябрдаги
117-13-182-Q/21-сон қарорига
3-илова

Беруний туманида 2021 йил кўз ва 2022 йил баҳор мавсумларида манзарали, мевали дарخت ва
буталар кўчатларини ташкилотлар қисмида екишнинг

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

T.r	Tuman nomi	Jami ekiladigan ko'chatlar va qalamchalar miqdori	shundan		shu jumladan:										
			2021 noyabr - dekabr oylarida	2022 bahor mavsumida	umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari voqasiga		qishloq xo'jaligi eklarida ihotada daraxtzorlar barpo etiladigan eklarda	fermer xo'jaliklari ekin er maydonlari chetlariga	ijtimoiy soha (maktab, kasalxona, o'quv yurtlari) ob'ektlari va tashkilotlar hududlarida				korxonalar va xizmat ko'rsatish sohalari hududlarida	tuman (shahar)lardagi obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi hududlar va ob'ektlarda	tuman (shahar)lardagi QFY, MFY hududlari va boshqa ob'ektlar hududlarida
					km	soni			oliy va o'rta maxsus ta'lim yo'nalishi ob'ektlarida	xalq ta'limi yo'nalishi ob'ektlarida	maktabgacha ta'lim yo'nalishi ob'ektlarida	sog'liqni saqlash yo'nalishi ob'ektlarida			
1	Beruniy	1068000	400500	667500	5,3	3000	47500	353000	12800	22100	15900	11700	64900	278400	258700

Беруний туман ҳокимининг
2021 йил 13 ноябрдаги
117-13-182-Q/21-сон қарорига
4-илова

Беруний туманида 2021 йил кўз ва 2022 йил баҳор mavsumlarida manzarali daraxt va
buta ko'chatlarini ekish rejalarini buyicha ma'lumot

№	Tuman nomi	Jami ekiladigan manzarali daraxt ko'chatlari soni	Shu jumladan															
			Virgin archasi	Sharq tuyasi	Yapon soforasi	Katalpa	Shumtol	Qavrag'och	Jivda	Tut	Zarang	Akatsiya	Terak	Suriya atirguli (gibiskus)	Boshqa turdagi manzarali daraxt va buta ko'chatlari	Mevali va yong'oq mevali daraxt ko'chatlari	Uzum	Qalamchalar
		reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja	reja
1	Beruniy tumani	1068000	1500	2000	3000	12000	16000	18000	2000	19000	7000	6000	13000	500	562200	40000	20000	345800